

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Isoqulova Durdona Jaxongir qizi

Aripova Ma`mura Shuhrat qizi

Suyarova Dilfuza Sa`dullo qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali,

Aniq va tabbiy fanlar fakulteti “Ijtimoiy ish” yo`nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo`rg`on filiali o`qituvchisi

Annotatsiya: Konstitutsiyamiz bilamizki asosiy qonun va unga so'zsiz amal qilish hamda unda belgilangan normalarni har biri jamiyatimiz hayoti uchun juda muhim ekanligini o'zimizning faoliyatimiz davomida ko'rishimiz mumkin. Deyarli har bir davlat o'z konstitutsiyasiga ega va ularni amal qilishi o'z navbatida jamiyat hayotining qay darajada ekanligini va rivojlanishi hamda farovonligi reytingini belgilab beradi. Dastlab konstitutsiyaning ahamiyatini uning qay darajadagi hujjat ekanligini va uning huquqiy maqomi qay darajada ekanligini bilishimiz lozim va shundan so'ng biz har bir amalga oshirayotgan harakatimizni huquqiy natijasi borligini hamda ular uchun rag'batlantirish yoki javobgarlik nafaqat Konstitutsiyada balki boshqa normativ huquqiy hujjatlarimizda aks etganini ko'rishimiz mumkin. Inson borki jamiyat mavjud, demak insonlar o'z huquqlarini amalga oshirish davomida atrofda insonlar uchun zarar yoxud xavf tug'dirmagan taqdirda amalga oshirishlari lozim. Bilamizki, jamiyat tushunchasi o'z ma'nosidan ham ko'rinib turibdiki, jamoa, jamoalar birlashmasi yoxud kishilar jamoasi ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, jamiyat davlat faoliyati davomida jamoat birlashmalari va jamiyatning tajribaga ega a'zolari fikriga asoslangan holda davlat boshqaruvini tashkil etadi. Ya'ni bilamizni fuqarolik instituti hisoblangan jamoat birlashmalari konstitutsiyamizning uchinchi bo'limida alohida bob shaklida yoritilgan.

Аннотация: Мы знаем, что наша Конституция является основным законом и безусловное следование ей. Каждая из определенных в нем норм очень важна для жизни нашего общества. мы можем видеть это в нашей работе. Почти каждый Государство имеет свою конституцию, и ее реализация, в свою очередь, зависит от общества. уровень его жизни и рейтинг его развития и благополучия определяет. Прежде всего, важность конституции – это уровень ее документа. нам нужно знать это и каков его правовой статус и а затем юридические последствия каждого действия, которое мы предпринимаем существование и поощрение или ответственность за них не только в Конституции но мы видим это отражение и в других наших нормативно-правовых документах.Если есть

человек, есть общество, а значит, люди могут реализовать свои права. Если это не причиняет вреда или опасности окружающим людям должно быть увеличено. Мы знаем, что понятие общества очевидно из его значения. Под сообществом подразумевается объединение сообществ или группы людей. Также в ходе государственной деятельности общества, общественных объединений и общества организует государственное управление на основе мнений его опытных членов. То есть Мы знаем, что общественные объединения считаются гражданскими институтами нашей конституции. Этому посвящена отдельная глава третьего раздела.

Annotation: We know that our Constitution is the fundamental law and unconditional adherence to it. Each of the norms defined in it is very important for the life of our society. we can see this in our work. Almost everyone The state has its own constitution, and its implementation, in turn, depends on society. his standard of living and his rating of development and well-being defines. First of all, the importance of a constitution is the level of its document. we need to know it and what is its legal status and and then the legal consequences of every action we take existence and encouragement or responsibility for them not only in the Constitution ut we see this reflected in our other regulatory documents. If there is a person, there is a society, which means people can realize their rights. as long as it does not cause harm or danger to others should be increased. We know that the concept of society is obvious from its meaning. Community refers to an association of communities or a group of people. Also in the course of government activities of society, public associations and society organizes public administration based on the opinions of its experienced members. That is We know that public associations are considered civil institutions in our constitution. A separate chapter of the third section is devoted to this.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiyaning ahamiyati, jamiyat, Konstititsiya — oliy yuridik qonun, fuqarolik jamiyati, huquqiy jamiyat, jamoat birlashmalari, normativ qonunlar, jamoat birlashmalari faoliyatida inson huquqlari.

Ключевые слова: значение Конституции, общество, Конституция превыше всего. правовое право, гражданское общество, правовое общество, общественные объединения, нормативный законы, права человека в деятельности общественных объединений.

Key words: the meaning of the Constitution, society, the Constitution is above all. legal law, civil society, legal society, public associations, normative laws, human rights in the activities of public associations.

Konstitutsiya lotincha constitutio — „tuzilish—, „tuzuk" ma`nolarini anglatadi.

Konstitutsiyamiz 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va Konstitutsiya kuni qilib belgilangan. Konstitutsiyamiz davlatimizni bosh qomusi ekanligini bilamiz.

Bugungi kunda bilamizki, jamiyat farovonligi va jamiyat xavfsizligi, jamoat birlashmalari tushunchalari ko'p duch kelmoqdamiz. Bu tushunchalar shuni anglatadiki, jamiyat faoliyatida yuqorida aytilgan belgilar mavjud bo'lsa davlatning ham faoliyatida rivojlanish bo'lishini ko'ramiz. Jamiyatga dastlab har bir allomalar turlicha fikr bildirishgan, masalan: Farobiy fikricha —Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin. Nemis mutaffakiri Gegel bo'yicha jamiyatning mukammal tipi bo'lib, German davri hisoblanadi. Bu davrda ilgari bo'lmagan holat: ilohiy va insoniy tabiatning birlashishi, fuqaro jamiyatining intellektual ilohiy podsholik bilan birlashishi ro'y berdi. Bu birlashishning muhim sababchilaridan biri, barcha insonlar teng, ozod va o'z hayotlarini o'zlari belgilaydilar, kabi ta'limot beruvchi xristianlikdir. Veberning fikricha, Antik jamiyatda hukmronlik va xokimiyat hukmronlar va itoatkorlar o'rtasida muqaddas sanalgan va azaldan shunday bo'lib kelgan, deb hisoblangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida esa, xalqning islohotlarga bo'lgan ishonchi ortishi uchun zarur asoslar shakllandi. Bu esa, o'z navbatida, yangi reja va dasturlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi bu borada ham milliy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu yo'nalishdagi serqirra faoliyat esa "Inson – jamiyat-davlat" g'oyasi asosida tashkil etilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan keng ko'lamlil vazifalar, xalqparvar davlat barpo etish, inson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada samarali ta'minlash kabi maqsadlar mamlakatimizdagi tub islohotlarga mos yangi konstitutsiyaviy-huquqiy makonni yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda. 2021-yil O'zbekiston Prezidenti saylovi jarayonlarida fuqarolarimiz, keng jamoatchilik va siyosiy partiyalar vakillari mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning mantiqiy davomi bo'ladigan chinakam hayotiy takliflar bilan chiqqan edilar. Jumladan, inson qadr-qimmatini, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, xususiy mulk muhofazasini, mamlakatda millatlar va elatlararo totuvlikni kuchaytirish, mahallaning o'rni va maqomini oshirish, oila institutining ahamiyati, davlat yoshlar va

gender siyosatini, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy sohaga investitsiyalar hajmini kengaytirish, shuningdek, Orol dengizi qurishi bilan bog‘liq vaziyatda insonning ekologik huquqlari, xalqimizning hozirgi va kelajak avlodlarining qulay va toza atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash kabi qator masalalarni Konstitutsiyada aks ettirish dolzarbligi ta‘kidlangan edi. Shu nuqtai nazardan prezidentimiz Sh. Mirziyoyev fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiyaga rioya etilishining kafili sifatida aholining ushbu takliflarini amalga oshirish uchun konstitutsiyaviy islohotlarni o‘tkazish g‘oyasini ilgari surdi.

2022-yilda e‘lon qilingan konstitutsiyaviy qonun loyihasini tayyorlashda keng jamoatchilik taklifi olinib, shular asosida konstitutsion komissiya o‘z ishini boshladi. Loyihada aynan fuqarolarni qiynayotgan ko‘plab masalalar o‘z aksini topdi. Uzoq davom etgan muhokamalarda xalqimizning o‘z kelajagiga befarq emasligi, konstitutsiyaning har bir bandi, har bir jumlasini tahlilga tortishi qalbimizni quvontirdi. Hamyurtlarimizning konstitutsiyaviy islohotlardagi faolligi, ular tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqib, yangi konstitutsiya moddalari soni 128 tadan 155 taga o‘zgartirildi. Umumuan olganda Konstitutsiyamiz 65 foizga o‘zgartirish kiritildi. Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, “Konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo‘llab-quvvatlashi asosida, referendum orqali amalga oshirsak, bu tom ma‘noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi — haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘ladi”.

Konstitutsiyaning yangi tahririda ushbu:

- Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

- Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

ikkita norma deyarli o‘zgarishsiz saqlab qolindi.

Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo‘shildi:

1. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.

Shu o‘rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o‘tish o‘rinli. Bu modda avvalgi holida, o‘zgarishlarsiz saqlab qolindi:

2. Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Yangilangan Konstitutsiya davlatning barcha qonunlari va normativ

hujjatlarining poydevori hisoblanadi. U jamiyatdagi asosiy huquqiy normalarni belgilaydi va fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Yangilanish jarayonida ko‘pincha fuqarolarning manfaatlarini, tenglik, ijtimoiy adolat va shaxsiy huquqlarini ta’minlash bo‘yicha yangi modda va normalar kiritiladi. Bu jamiyatdagi har bir shaxs uchun yanada ko‘proq imkoniyatlar va himoyani ta’minlaydi.

Konstitutsiyadagi yangiliklar davlat boshqaruvi tizimini zamonaviylashtirishga, samaradorlikni oshirishga va korrupsiya kabi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, xalq farovonligini oshirishga yordam beradi. Konstitutsiyaviy islohotlar jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlashga yordam beradi. Fuqarolar davlat va qonunlarga nisbatan ko‘proq ishonch bildira boshlaydi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni oshiradi. Yangilangan Konstitutsiya iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yangi qoidalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, xususiy mulk huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratish va investitsiyalarni rag‘batlantirish. Demokratik tamoyillarga asoslangan Konstitutsiya davlatning xalqaro obro‘cini oshirishga xizmat qiladi. Bu xorijiy davlatlar va tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim omil hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiyaning asosiy maqsadi — jamiyat ehtiyojlari va talablariga mos keluvchi huquqiy asos yaratishdir. Bu esa davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni kuchaytiradi va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. <https://yuz.uz/uz/news/referendum-nima>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/27/referendum/>
3. Юнусова, Н. Ш., Назарова, Н. Ж., & Жуманиязова, Н. С. (2022).
4. ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
5. (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). Современное образование
6. (Узбекистан), (6 (115)), 9-16.
7. 3. Дадашева, А. А. (2022). ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШ
8. ШАРОИТИДА ҲОКИМЛАР ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК
9. НАЗОРАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ
10. ЙЎНАЛИШЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU
11. Conference 1), 117-122.